

Salimova Mahfuza Umidullo qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

1-bosqich magistranti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MA'NAViy-MA'RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarda ma'naviy –ma'rifiy tadbirlar mazmuni va uni tashkil etish uslubi haqida fikr yuritilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasidagi yutuq kamchiliklar muammo va ularning yechimlari tashkil etilayotgan tadbirlarda vatanni qadrlash kabi tarbiyaviy jarayonlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy, tadbir, tarbiya.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается содержание духовно-просветительской деятельности в школах и метод ее организации. Достижения, недостатки, проблемы и их решения в области духовно-просветительской работы в Узбекистане даны сведения о воспитательных процессах, таких как ценение Родины.

Ключевые слова: начальное образование, духовно-просветительское, мероприятие, образование.

METHODOLOGY OF ORGANIZING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS FOR PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation. In this country, the content of spiritual and educational activities in schools and methods of its organization are considered. Achievements, shortcomings, problems and solutions in the field of spiritual and educational work in Uzbekistan and the educational process, as well as high appreciation of the Motherland.

Keywords: primary education, student, spirituality, event, upbringing.

Kirish. Yoshlar tarbiyasi barcha davrlarda ham dolzarb muamolardan biri ekan, ayniqsa bu masalaga mustaqillik yillarida jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Bizga ma'lumki, yosh avlod ma'naviyati shubhasiz ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblangan tarbiyaga bo'lgan e'tibor yurtimizda har qachongidan ham muhim dolzarblik kasb etmoqda. O'quvchi o'quv jarayonining davomi sifatida bevosita tarbiyaviy ishlarda ishtirok etadi. Uning darsda olgan bilimi, dunyoqarashi, qiziqishi, imkoniyatlari tarbiyaviy ishlarda namoyon bo'ladi, mustahkamlanadi. Eng asosiysi o'quvchi tarbiyaviy ishlarda qatnashish jarayonida o'z-o'zini anglaydi, ijodkorligi o'sadi, olgan bilimlarini amalda qo'llashga o'rganadi, shuningdek, ularda jamoatchilik, uyushqoqlik, hamdardlik kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta'sir ko'rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o'qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o'qituvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Mavzuni yoritib berish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning samarali shakl va usullarini ishlab chiqish juda muhim. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ma'naviy va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish lozimligi alohida ta'kidlangan. Bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun shubhasiz, xalqimizning bir necha asrlarga borib taqaluvchi urf-odat, an'ana va qadriyatlari hamda pedagogik merosidan, umumbashariyat tafakkur xazinasiga katta hissa qo'shgan ma'rifatparvarlarimizning axloqiy asarlaridan ijodiy foydalanish juda muhimdir. Zero, sinfdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar keng tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lib, so'z bilan ish birligini, axloqiy tushunchalarning xulqiy ko'nikma, odat, malakalarga aylanishini ta'minlaydi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishida, shubhasiz, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayoni muhimdir.

O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda, ularning ongiga, shuuriga ta'sir ko'rsatishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar katta ahamiyatga molik, bu ishni muvaffaqiyatli hal qilishda, albatta, o'qituvchilardan chuqur bilim, izlanish, fidoyilik talab qilinadi. Eng avvalo o'qituvchilar, jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'tkazish metodikasini chuqur bilishlari juda muhimdir. Mavzuni yoritib berish jarayonida bir qator sinfdan tashqari tadbirlarni amalga oshirdik, unda yangi usul maktabi tarafdorlarining darsliklaridagi axloqiy tarbiyaga doir matnlarni asos qilib oldik. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni quyidagi shakl-usullarda o'tkazish maqsadga muvofiq: axloqiy mavzudagi suhbatlar kitoblar ko'rgazmasi, adabiy ertaliklar, kitobxonlik konferensiyalari, qiziqarli savol-javob o'yinlari (viktorinalar). Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilimdon, odob-axloqli, o'z kasbining fidoyisi bo'lishi zarur. O'qituvchi sinfdan tashqari o'tkaziladigan axloqiy mavzudagi suhbatlarga alohida e'tibor berishi kerak. Zero, sinfdan tashqari o'tkaziladigan ishlar jarayoni muhim bo'lib, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda yetakchi ahamiyatga ega. Bizning kuzatishlarimiz, ilmiy-tajriba ishlarimizning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazishning ahvolini qoniqarli holda deb bo'lmaydi. Bunga asosiy sabablar:

a) aksariyat maktablarning boshlang'ich sinflarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida yangi usul maktabi tarafdorlarining merosiga doir axloqiy mavzudagi suhbatlar deyarli o'tkazilmaydi;

b) juda kam maktablarda sinfdan tashqari ishlar jarayonida axloqiy mavzudagi suhbatlar o'tkazib turilsada, bunda juda katta xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Xususan: ko'plab o'qituvchilar axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish metodikasini bilmaydilar, shu sababli ko'zlangan maqsadga erisha olmayaptilar;

-axloqiy mavzudagi suhbatlar har oyda, ba'zan har ikki oyda bir marta nomigagina, yoxud turli xil sabablar bahonasida o'tkaziladigan hollar ko'p uchraydi;

-bunday suhbatlar ko'pincha quruq nasihatbozlikka aylanib ketmoqda va o'quvchilar shuuriga deyarli ta'sir ko'rsata olmayapti;

-bunday suhbatlarda xalqimizning ma'naviy-axloqiy mavzudagi boy pedagogik merosidan juda kam foydalanilayotir;

d) o'qituvchilar uchun axloqiy mavzuda suhbatlar o'tkazish bo'yicha metodik qo'lanma va tavsiyanomalar deyarli yo'q, borlari ham juda eskirib o'z ahamiyatini yo'qotib qolganligini ta'kidlash joiz.[2; 96-b]

Axloqiy mavzudagi suhbatlar sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda bir qator afzalliklarga ega. Maqolamiz maqsadining ko'rsatishicha, bular asosan quyidagilardan iborat: bunday suhbatlar orqali o'qituvchilar o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladilar. O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida o'zaro yaqinlik, keyinroq esa hattoki, sirdosh bo'lish hollari uchraydi; boshlang'ich sinf o'qituvchilari har bir o'quvchining individual xususiyatlari, fe'l-atvori, xohish-istak, mayllari,

190 xulqi va odobini o'rganishlari, ba'zi hollarda esa xulqida paydo bo'ladigan salbiy holatlarni bartaraf qilishda axloqiy mavzudagi suhbatlar yetakchi rol o'ynaydi:

-o'qituvchilar uchun bunday suhbatlar o'quvchilarning axloqiy tarbiyasigata'sir o'tkazishning muhim shakli bo'lib, shubhasiz o'zining ijobiy natijasini beradi.[3; 530-b]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalashda sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk maktabdagi qadamidanoq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo'r imkoniyat beradigan, bolalarda bir-birlariga g'amxo'r munosabatda bo'lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi. O'qituvchi boshlang'ich sinflarda bolalarga o'zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq, ko'pincha, kichik yoshdagi o'quvchilar yosh xususiyatlariga ko'ra, o'z xususiyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar. Bolalarning o'sishi ularda jamoatchilik malaka va ko'nikma- larining shakllanib borishi bilan o'qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o'zgartirib boradi. O'qituvchi boshlang'ich sinflardayoq ahil bolalar jamoasini yaratish asosida sog'lom jamoatchilik fikrini yaratadi.[4; 152-b]

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar tarbiyaviy jamoasini yaratish sohasidagi ishini yuqori sinflarning sinf rahbarlari davom ettiradilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o'rganadilar. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzaytiradi, u o'qituvchining darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olish- larini uyushtirish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ish bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" – Toshkent : O'zbekiston, 2017.
2. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. 2005
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996.
4. Oripova N., Muhammadiyeva M., Yarmanova Y. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. Qarshi "Nasaf", 2013